

**O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining
“Yangi O‘zbekiston-2030” dasturi bo‘yicha sifat sohasidagi**

S I Y O S A T I

O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi matnlarda – Vazirlik) davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, “elektron hukumat” tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishi ta’minlash maqsadida tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlikning 2023-yil 27-yanvardagi 30-son buyrug‘i bilan Vazirlik faoliyati va uning tuzilmasi belgilandi.

Vazirlik rahbariyati Xalqaro standart ISO 9001:2015 asosida sifat menejmenti tizimini, birinchi navbatda, markaziy apparat faoliyatiga joriy qilinishi va tizim faoliyatining doimo yaxshilab borilishini ta’minlash, vazirlik tarkibiga kiruvchi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxonalar, tashkilot va muassasalari faoliyatini to‘g‘ri va sifatli muvofiqlashtirish va boshqarishni ta’minlash uchun yaratilgan zarur sharoit deb qaraydi.

Bizning missiyamiz:

“Mijozlar, tarkibga kiruvchi tashkilotlar va boshqa barcha manfaatdor tomonlarning Vazirlik markaziy apparati xodimlariga nisbatan ishonchini qozonish”

Biz doimiy ravishda o‘z xizmatimizni O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va faoliyatda qo‘llaniladigan me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ravishda, to‘g‘ri va halol amalga oshiramiz. Bu, o‘z o‘rnida, Vazirlik tarkibidagi tashkilotlar uchun mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, “elektron hukumat” tizimini tatbiq qilish kabi asosiy funksiyalarni amalga oshirishlarida natijali ishtirok qilishlariga imkon yaratadi, shuningdek, bizning faoliyatimiz davomli bo‘lishi va yanada rivojlantirilishiga xizmat qiladi.

Bizning strategik maqsadimiz:

Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalariga zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, “elektron hukumat” tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq yetish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishini ta’minlash.

Bizning Qadriyatlarimiz:

Vazirlik markaziy apparati va tarkibga kiruvchi tashkilotlar rahbarlari va mutaxassis xodimlarining professionalligi va ularning malakasi, ularning birdamligi, shuningdek, eng asosiysi, Vazirlik xizmatidan foydalanayotgan yoki foydalanishni xohlayotgan barcha mijozlar, to‘g‘ri va halol hamkor tashkilotlar biz uchun qadri va bebaho hisoblanadi.

Vazirlik markaziy apparati sifat menejmenti tizimi sohasida belgilangan asosiy strategik vazifalar

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishida:

- optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O‘zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish;
- taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, rezervlash, tizimlarning ishonchliligini ta‘minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta‘minlash uchun ma‘lumotlar uzatish tarmog‘ini kengaytirish;
- mobil va yo‘ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag‘batlantirishning qo‘shimcha mexanizmlarini yaratish;
- mobil aloqa tarmog‘ini 4G va 5G texnologiyasi bo‘yicha rivojlantirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan bosqichma-bosqich qamrab olish;
- aloqa operatorlari o‘rtasida raqobatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish;
- avtomagistral va temir yo‘llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta‘minlash;
- Internet jahon axborot tarmog‘iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish;
- geografik joylashuvidan qat‘i nazar, fuqarolarning o‘sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish;
- “bulutli” hisoblashlar asosida ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta‘minlash;
- bozorning erkin rivojlanishi imkoniyatini saqlab, telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash, biznes yuritish va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun ma‘muriy to‘siqlarni kamaytirish;
- elektron hukumat doirasida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarini idoralararo ma‘lumotlar uzatish tarmog‘iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishida:

- korxonalar ta‘minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta‘minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;
- zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;
- elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarning tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarini QR to‘lovlari texnologiyasi va NFC texnologiyalarini joriy qilish, jumladan mobil qurilmalar orqali to‘lovlarni qabul qilish orqali zamonaviy va qulay bo‘lgan masofaviy usullarda qabul qilish imkoniyatini yaratish;
- tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko‘rsatish ko‘lamini va sifatini oshirish;
- transchegaraviy elektron tijoratni rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o‘z vaqtida eksport qilishni ta‘minlash;
- elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, raqamli hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasini takomillashtirish;
- sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;
- ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Raqamli texnologiyalar milliy bozorini rivojlantirish yo‘nalishida:

- milliy startaplarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish boshlayotgan korxonalar va kichik korxonalar, jumladan vechur moliyalashtirish orqali ko‘maklashish;
- IT-parkning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini ochish orqali mahalliy dasturiy ta‘minot ishlab chiquvchilarining manfaatlarini ifodalash hamda ularga o‘z mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surishda ko‘maklashish;
- axborot texnologiyalari sohasida autsorsing xizmatlari bozorini (BPO) rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- kibersportni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xorijiy investitsiyalarni mahalliy IT-mahsulotlarini ishlab chiqish va rag‘batlantirishga jalb qilish, ushbu sohadagi malakali mutaxassislarni tanlab olish va tayyorlash;
- IT-park asosida ilg‘or texnologiyalardan (Big Data, IoT, AI blokcheyn va boshqalar) foydalangan holda ustuvor tarmoqlar uchun “aqlli yechimlar”ni ishlab chiqishni rag‘batlantirish;
- biznes korxonalarini, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yuqori texnologiyali tadbirkorlik markazlari va klasterlarini yaratishga ko‘maklashish;

- texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish.

Raqamli hukumatni rivojlantirish yo‘nalishida:

- vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o‘rinlarda – davlat organlari va tashkilotlari)ning elektron hukumat sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilishi sifatini, shuningdek elektron hukumat loyihalarini amalga oshirish samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlariga erishilishi darajasini baholash;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqilishi, joriy etish borasida yagona texnologik yondashuvni amalga oshirish;
- elektron hukumat arxitekturasiga kiruvchi markaziy axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasi va boshqa dasturiy-apparat majmualarini uzluksiz faoliyatini va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borishni ta’minlash;
- davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida idoralararo elektron hamkorlik qilishning yagona siyosatini ishlab chiqadi, ushbu jarayonlarning amaldagi holati bo‘yicha monitoring tadbirlarini olib boradi hamda mazkur jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish doirasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- elektron platforma va veb-saytlarda joriy etilgan elektron xizmatlarini soddalashtirish, proaktiv shaklga o‘tkazish, avtomatlashtirishga o‘tkazish ishlarini tashkil etish;
- davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, raqamlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi, elektron davlat xizmatlarining reglamentlarini kelishadi hamda ularni joriy etilishi ustidan ishlarni muvofiqlashtirish;
- elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida axborot tizimlari, resurslari va boshqa dasturiy mahsulotlarni yaratish va joriy etish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining loyihalari va texnik hujjatlari loyihalarini majburiy ekspertizadan o‘tkazadi hamda ularning reyestrini yuritish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining raqamlashtirish bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlari (Chief Digital Officer) faoliyatini va ularning elektron hukumat sohasida loyihalarni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda ularning ishini har chorakda aniq natijalarga ko‘ra baholab borish;

Raqamli ta’limni rivojlantirish yo‘nalishida:

- Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish ishlarini tashkil etish;

- Vazirlik tizimiga kiruvchi oliy va boshqa ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;
- nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta'lim muassasalari va/yoki filiallarni O'zbekistonda tashkil qilish yuzasidan takliflarni ishlab chiqadi hamda faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tegishliligi bo'yicha muvofiqlashtirishni ta'lim sohasidagi vakolatli organ bilan hamkorlikda tashkil etish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tashkil qilish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy bozorining rivojlanish tendensiyalarini va chet el tajribasini hisobga olib, ta'limning yangi yo'nalishlari uchun axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim standartlarini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish;
- o'quv jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish qismida, shu jumladan yetakchi chet el ta'lim muassasalarining mutaxassislari va ekspertlarini jalb qilgan holda ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish kompleks dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining xodimlari raqamli savodxonligini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirishlari bo'yicha malaka oshirish va o'quv kurslarini tashkil qilish va ularning attestatsiyadan o'tkazilishini tashkil qilish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy hokimlik idoralari xodimlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishidagi malaka ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini tashkillashtiradi, tahlil qiladi va ko'maklashib borish.

Sifat menejmenti sohasidagi siyosatdan kelib chiqib Vazirlik yuqori rahbariyati quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- Sifat menejmenti tizimi faoliyatining samaradorligini doimiy oshirish maqsadida, barcha xodimlarning peshqadamligini mustahkamlash uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar hamda moddiy resurslar bilan ta'minlash;
- O'zbekiston respublikasi davlat qonunlari, xalqaro standartlar va ichki me'yoriy hujjatlar talablariga to'liq rioya qilish;
- Mazkur sifat menejmenti tizimi sohasidagi siyosati va maqsadlarini amalga oshirish, shuningdek Siyosatni barcha manfaatdor tomonlarga yetkazish. Sifat menejmenti tizimi faoliyatini Xalqaro standart ISO 9001 talablari asosida doimo takomillashtirib borish.

Ushbu Siyosat Vazirlik markaziy apparati sifat menejmenti tizimi sohasidagi maqsadlari va vazifalarini belgilashda asos hisoblanadi.